

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA
VOYAGA YETMAGANLAR JINSIY DAXLSIZLIGINI TA’MINLASHNING
YANGI BOSQICHI: YUTUQ VA MUAMMOLAR**

Qurbonova Nilufar Jaxongir qizi

Jamoat xavfsizligi universiteti

Yurisprudensiya yo’nalishining

102-guruh talabasi



Annnotatsiya. Mazkur maqolada voya yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy tavsifi, ularning iltimoiy xavflilik darajasi hamda voyaga yetmaganlarning oiladagi huquqlari va xalqaro huquqiy asoslar, bu boradagi statistik ko’rsatikichlar tahlil qilingan. Shuningdek, tergov jarayonida voyaga yetmaganlarga doir muammolar yoritilgan.

Kalit so’zlar: jinoiy-huquqiy himoya, xalqaro standartlar, voyaga yetmaganlar, jinsiy daxlsizlik, bolalar huquqlari.

Abstract: In this article, I will analyze the criminal-legal description of crimes against the sexual integrity of minors, their degree of psychological danger, the family rights of minors, international legal frameworks, as well as statistical indicators. I will also highlight the problems in the investigation of minors.

Keywords: criminal-legal protection, international standards, minors, sexual integrity, children's rights.

Аннотация: В данной статье проанализированы уголовно-правовое описание преступлений против сексуальной неприкосновенности несовершеннолетних, степень их психологической опасности, семейные права несовершеннолетних, международно-правовые рамки, а также статистические показатели. Также будут освещены проблемы расследования в отношении несовершеннолетних.

Ключевые слова: уголовно-правовая защита, международные стандарты, несовершеннолетние, сексуальная неприкосновенность, права детей.

Voyaga yetmaganlar jamiyatning eng himoyaga muhtoj qatlami hisoblanadi. Ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishi davlat tomonidan alohida muhofaza qilinishi lozim. Shu bilan birga voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizgiga qarshi jinoyatlar og’ir va o’ta og’ir jinoyatlar sirasiga kiradi. Mazkur jinoyatlar dunyo bo’yi global muammolar hisoblanib, bu kabi jinoyatlar yashirin xarakterga ega bo’ladi.

Inson huquqlari doirasida voyaga yetmaganlarning, ya’ni bola huquqlarining kafolati, ularning alohida individ sifatida himoya qilinishiga, shuningdek, voyaga

yetmaganlar huquq va erkinliklarini kafolatlovchi takomillashgan huquqiy baza shakllanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Butun dunyoda bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashishga e'tibor kuchayishi, jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilishda ko'plab ijobiy o'zgarishlarga qaramay, voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'ravonlik har xil korinishlarda keng tarqalmoqda. O'zbekistonda 2023-yilning 10-oktabr kuni Ijtimoiy himoya milliy agentligi, O'zbekiston Adliya vazirligi va YUNICEF hamkorligida o'tkazilgan tadbirda Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Shaxnoza Mirziyoyeva o'z nutqida O'zbekistonda 2023-yilning to'qqiz oyida 1240 ta voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari qayd etilgan bo'lsa, shundan 417 tasi jinsiy zo'ravonlik ekanligini ta'kidlab o'tgani ushbu mavzuning dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Shunday ekan, bugungi kunda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo'ravonlik jinoyatlarini tahlil qilish, ulaming kelib chiqish sabablarini o'rganish, jabr ko'rgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish hamda jinoyat sodir etgan shaxslarning javobgarlik masalalarini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik tadqiqot mavzusi sifatida 1990-yillardan boshlab yuzaga keldi. Antik davrda kattalar va bolalar o'rtasidagi jinsiy aloqa mutlaqo odatiy hol sifatida qaralgan. O'tmishda qullarga, shuningdek bolalarga ularga saroy xizmatkorlari sifatida jinsiy tazyiq o'tkazish ko'p sodir boladigan holat hisoblangan. Bundan tashqari, urushlar, harbiy to'qnashuvlar sodir bolishi qizlarning, odatda o'n yoshdan kichik bolgan balog'atga yetmagan qizlarning nomusiga tegish, ularni qullikda saqlashga sabab bo'luvchi omillardan bolgan. Tarixiy ma'lumotlar shuni korsatadiki, o'rta asrlar hamda yangi davr bosqichida bolalarga nisbatan sodir etilgan jinsiy zo'ravonlikka nisbatan kamdan-kam hollarda odil sudlov jarayonlari amalga oshirilgan. Ushbu holatda qachonki erkak kishining biologik izlari bolaning jinsiy a'zosida topilsagina jinsiy zo'ravonlik deb baholangan, biroq ushbu holat ko'p hollarda isbotlanmay qolardi. Bundan tashqari, ishning sudda korilishi va qaror qabul qilinishi, ayblanuvchining javobgarlikka tortilishi masalasi jabrlanuvchi va ayblanuvchining, ularning oila a'zolarining ijtimoiy holatiga ham bog'liq bo'lgan.

Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlar – bu 18 yoshga to'lmagan shaxslarning jinsiy erkinligi va daxlsizligiga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida

-nomusga tegish,

-zo'ravonlik sodir etilgan harakatlar,

-voyaga yetmagan shaxs bilan jinsiy aloqada bo'lish,

-axloqsiz harakatlarga jalb qilish

kabi qilmishlar uchun alohida javobgarliklar belgilangan.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinsiy jinoyatlar o'ta jiddiy huquqbuzarlik bo'lib,

O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra (JK 85-86 moddalar) 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslar uchun og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar (shu jumladan jinsiy) sodir etilganda 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin. Bunday jinoyatlar maxsus o‘quv-tarbiya muassasalarida nazorat ostida ko‘riladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, 16 yoshga to‘lgan voyaga yetmaganlar barcha turdagi jinoyatlar, jumladan jinsiy jinoyatlar uchun umumiy asoslarda javobgarlikka tortiladilar.

16-18 yoshli shaxslar uchun o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi berilishi mumkin. Sudlar bunday ishlarni ko‘rishda voyaga yetmaganlarning yoshi, ruhiy holati va jinoyat sodir etish sabablarini inobatga olinadi.

Voyaga yetmaganlarni himoya qilish olan “Convention on the Rights of the Child” (Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya bo‘lib 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan va 1990-yil 2-sentyabrda kuchga kirgan), unda bolalarni har qanday zo‘ravonlik va ekspluatatsiyadan himoya qilish davlatlarning majburiyati sifatida belgilangan.

Shuningdek, United Nations (to‘liq nomi va o‘zbek tilida) ma‘lumotlariga ko‘ra dunyo bo‘yicha har 5 nafar qizdan 1 nafari va har 13 nafar o‘g‘il boladan 1 nafari 18 yoshgacha jinsiy zo‘ravonlikka duch keladi. Bunday jinoyatlarning 70–80 foizi yaqin tanish yoki qarindosh shaxslar tomonidan sodir etiladi. Bu ko‘rsatkichlar muammoning jiddiyligini tasdiqlaydi.

UNICEF ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 120 milliondan ortiq qiz bolalar 18 yoshgacha jinsiy zo‘ravonlikning turli shakllariga duch kelgan. Ko‘plab holatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yetib bormaydi.

Tarixiy ma‘lumotlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, jinsiy zo‘ravonlik qurbonlarining aksariyatini bolalar tashkil qilgan bolib, birgina misol, Londonda 1674-1800-yillar oralig‘ida ko‘rilgan zo‘rlash holatlarining 306 tasi 14 yoshgacha bolgan bolalarga nisbatan sodir etilgan. Yangi davrda birinchilardan bolib Angliyada jinsiy zo‘ravonlik jinoyatlari uchun hukm qilishda jabrlanuvchilarning yoshi hisobga olinishni boshladi. 1567-yildagi Zorlash to‘g‘risidagi statutda 10 yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, agar uning roziligi bo‘lgan taqdirda ham jinoyat hisoblanishi belgilab o‘tildi va shu tariqa "rozilik yoshi" tushunchasi paydo bo‘la boshladi. Islom tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, voyaga yetmaganlarni zo‘rlaganlik odob-axloq va jamoat tartibiga doir jinoyatlari hisoblanib, ushbu qilmish uchun "had", ya'ni 40 tadan 100 ta darragacha qamchi urish jazosi qo‘llanilgan.

Bolalar huquqlarining jahon hamjamiyatida tan olinishi va mustahkamlanishi bolalarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo‘ravonliklarning jinoyat sifatida tan olinishiga va javobgarlikni belgilashga sabab bo‘ldi. O‘tgan asrlar davomida bu turdagi jinoyatlarda jazo tayinlashda jabrlanuvchi va ayblanuvchining jamiyatdagi mavqeyi, ijtimoiy holatidan kelib chigilgan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu masalalar shaxsning

tabaqasiga bog'liq bo'lmagan holat hisoblanadi.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 19-moddasiga muvofiq, Konvensiyani ratifikatsiya qilgan mamlakatlar oldida bolani jismoniy va ruhiy zo'ravonlikning har qanday shakllaridan himoya qilish, o'zga shaxslar tomonidan ekspluatatsiya qilish, ularga nisbatan shahvoniy suiste'molliklar sodir etishdan himoya qilish uchun barcha qonuniy, ma'muriy, ijtimoiy va ma'rifiy choralarni ko'rish majburiyati mavjud hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga ko'ra hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas, deb belgilab qo'yilgan. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 10-moddasiga ko'ra, davlat bolaning ekspluatatsiya va zo'ravonlikning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan hamda shahvoniy shilqimliklardan, huquqbuzarliklar va g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etishga jalb etilishidan himoya qilinishini amalga oshirishi kafolatlab qo'yilgan.

Jinsiy zo'ravonlik turlarini tahlil qilishdan oldin "zo'ravonlik", "zo'rlik" tushunchalariga to'xtalib o'tishim lozim. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jami sakkiz o'rinda "zo'ravonlik" atamasi qo'llanilgan bolib, biroq ushbu tushunchaning tavsifi keltirib o'tilmagan. Xususan, Jinsiy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar bobida keltirib o'tilgan jinoyatlarning (118, 119, 121-moddalar) tavsifida ham "zo'rlik ishlatib" tushunchalari qo'llanilgan.

Zo'ravonlik — bu bir shaxs tomonidan boshqa shaxsga nisbatan uning irodasiga qarshi ravishda jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazishidir. Bunda asosiy maqsad — jabrlanuvchi ustidan hukmronlik qilish, uni bo'ysundirish yoki unga zarar yetkazishdir.

Zo'rlik — bu ko'proq jinoyat huquqida qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, jinoyatni sodir etish usuli yoki vositasi hisoblanadi. Bu — jabrlanuvchining qarshiligini sindirish yoki uni muayyan harakatni bajarishga majburlash uchun qo'llaniladigan bevosita jismoniy kuchdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinsiy xarakterdagi jinoyatlar sonida o'sish kuzatilmoqda. **Statistika kerak**

Zo'ravonlikning shakli bo'yicha ochiq (shaxs jinsiy harakatni amalga oshirish maqsadini ochiqdan-ochiq ifodalaydi) va yopiq (odatda jabrlanuvchi jinoyatchi shaxsning xatti-harakatlarining mazmuni va uni oqibatini tushunmaydi); tayyorgarlik darajasiga ko'ra rejalashtirilgan (shaxsning qasdi oldindan shakllangan bo'ladi) va rejalashtirilmagan (mavjud vaziyatda yuzaga keladi, masalan, shahvoniy shilgimlik); jinoyatchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi munosabatga ko'ra oila ichidagi (ota-ona, aka-uka, opa-singil munosabatlarida), qarindoshlik aloqalari bo'lgan shaxslar doirasida

(yaqin garinsdoshlar tomonidan), oiladan tashqari shaxslar (begona shaxslar); amalga oshirish shakliga ko'ra esa aloqali (bevosita jinsiy aloqa qilish orqali), aloqasiz (gruming, uyatsiz-buzuq harakatlar qilish, jinsiy ekspluatatsiyaga jalb qilish, bola ishtirok etgan pornografik material tayyorlash); jinsiga ko'ra geterooseksual (qarama-qarshi jins vakili bilan) va gomoseksual (bir turdagi jins vakili bilan) kabi turlari mavjud.

Bunday jinoyatlar ko'pincha oila doirasida, ta'lim muassasalarida, internet orqali tanishuv natijasida sodir etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligini ta'minlash masalasi so'nggi yillarda tubdan isloh qilindi (xususan, 2023-yil 11-apreldagi O'RQ-829-sonli Qonun bilan). Biroq, qonunchilik va amaliyotda hali ham bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

1. Kvalifikatsiya qilishdagi muammolar (moddalarni qo'llash). Jinoyat kodeksining 128-moddasi (16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish) va 129-moddasi (16 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish) o'rtasidagi chegara amaliyotda ba'zan chalkashliklarga sabab bo'ladi.

Muammo – aybdor shaxs jabrlanuvchining yoshini bilmaganligini ro'kach qilishi. Amaldagi qonunchilikda "aybdor shaxs jabrlanuvchining yoshini bilishi ayon bo'lgan" degan jumla isbotlash jarayonida qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli jabrlanuvchining yoshini bilish-bilmasligidan qat'i nazar, qat'iy javobgarlik tamoyilini yanada kuchaytirish lozim.

2. Sud-tibbiy va psixologik ekspertiza muammolari. Jinsiy jinoyatlarni isbotlashda ekspertiza xulosasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Muammo – voyaga yetmaganlar bilan ishlashda ixtisoslashgan sud-psixologik ekspertlarining yetishmasligi. Natijada bolaning ruhiy holati, uning ko'rsatma bera olish qobiliyati yoki voqeani qabul qilish darajasi noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Bu esa jinoyatchining jazodan qutilib qolishiga yoki jazo yengillashishiga olib keladi.

3. Latentlik (Yashirinlik) va xabar bermaslik. Bu nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy muammodir. Ko'p hollarda jinsiy zo'ravonlik oila a'zolari yoki yaqin shaxslar tomonidan sodir etiladi. "Oilaviy sir" yoki "sharmandalik" tushunchalari sababli jinoyat haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berilmaydi. Jinoyat haqida xabar bermaganlik uchun javobgarlik mavjud bo'lsa-da, yaqin qarindoshlarga nisbatan bu normani qo'llash mexanizmi mukammal emas.

4. Raqamli makon va kiber-zo'ravonlik. Internet orqali voyaga yetmaganlarni jinsiy ekspluatatsiya qilish (grooming) va ularning intim suratlarini tarqatish bilan qo'rqitish kabi yangi turdagi jinoyatlar ko'paymoqda. Muammo – Jinoyat kodeksida kiber-makonda sodir etiladigan bu kabi harakatlar uchun alohida, aniq moddalar va ularni kvalifikatsiya qilish qoidalari yetarli darajada shakllanmagan. Raqamli dalillarni to'plash va ularni protsessual jihatdan rasmiylashtirishda texnik va huquqiy bilimlar

yetishmaydi.

5. Jabrlanuvchini himoya qilish (Re-viktimizatsiya). Tergov va sud jarayonida voyaga yetmagan shaxs bir necha bor so‘roq qilinadi. Muammo – har bir so‘roq bola uchun yangi travma (re-viktimizatsiya). O‘zbekistonda "Yashil xona" (bola uchun xavfsiz muhit) tizimi joriy etilayotgan bo‘lsa-da, u hali hamma tumanlarda mavjud emas. Bolaning ko‘rsatmalarini videotasvirga olib, sud jarayonida bolaning bevosita ishtirokisiz undan dalil sifatida foydalanish mexanizmi barcha holatlarda ham ishlamaydi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiqdir:

– Jinoyat kodeksiga "Grooming" (bola bilan jinsiy maqsadda aloqa o‘rnatish) uchun alohida modda kiritish;

– Re-viktimizatsiya bo‘yicha “Bolalar uyi” modelini joriy etib, barcha tergov harakatlarini bitta xavfsiz joyda o‘tkazish;

– Jinsiy jinoyat sodir etgan shaxslarning yagona elektron reyestrini yuritish va ularning bolalar bilan ishlashini umrbod taqiqlash;

– Maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolalarga shaxsiy daxlsizlik chegaralari va xavfli vaziyatlarda o‘zini himoya qilish bo‘yicha tushuntirish ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish;

– Internet makonida voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan kiber-zo‘ravonlik (grooming, kiber-pedofiliya) holatlarini barvaqt aniqlash mexanizmlarini yaratish va raqamli nazoratni kuchaytirish;

– Voyaga yetmaganlar bilan ishlashga ixtisoslashgan, psixologik tayyorgarlikka ega bo‘lgan tergovchi va surishtiruvchilar korpusini shakllantirish hamda tergov jarayonida bolaning qayta jarohatlanishini (re-viktimizatsiya) oldini oluvchi protsessual kafolatlarni kuchaytirish;

– Jinsiy jinoyat sodir etgan shaxslarning yagona reyestrini yuritish hamda ularning keyingi faoliyati ustidan qat’iy ma’muriy va profilaktik nazorat o‘rnatish.

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligini jinoyat-huquqiy himoya qilish masalasi nafaqat milliy qonunchilikning, balki xalqaro huquqiy tartibotning ham eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sohadagi huquqiy islohotlar qanchalik qat’iy bo‘lmasin, jinoyatlarning yashirin (latent) tabiati, tergov jarayonidagi psixologik to‘siqlar va raqamli makonda yuzaga kelayotgan yangi tahdidlar ushbu himoya tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Bolalarning huquq va erkinliklarini kafolatlash — bu faqat jazo choralarini kuchaytirish bilan cheklanib qolmay, balki protsessual harakatlar davomida jabrlanuvchining manfaatlarini ustuvor deb bilish hamda davlat va jamiyatning ushbu

yoʻnalishdagi say-harakatlarini birlashtirishni talab etadi. Zero, voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligini toʻlaqonli taʻminlash jamiyatning maʼnaviy sogʻlomligi va kelajak avlodning xavfsiz kamol topishining eng asosiy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Convention on the Rights of the Child
3. UNICEF statistik maʼlumotlar
4. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
5. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi statistik maʼlumotlar
6. "Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisidagi" qonun
7. Kun.uz